

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

JOURNAL
2022

№3

Бош мұхаррир:

Пардаев А.Х. ЖДПИ, тарих факультети декани, т.ф.н. доцент.

Бош мұхаррир ўринбосари:

Ақчаев Ф.Ш. ЖДПИ, тарих факультети, т.ф.б.ф.д. (PhD), доцент.

Масъул котиблар:

Сайдов Ж.О. ЖДПИ, Тарих факультети ўқитувчиси

Хұжанова М. ЖДПИ, Тарих факультети ўқитувчиси

Таҳририят аъзолари:

1. Сагдуллаев А.С. – тарих фанлари доктори, Академик,
2. Ахмедшина Ф.А. – тарих фанлари доктори, профессор,
3. Шодмонова С.Б. – тарих фанлари доктори, профессор,
4. Очилова Б.М. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
5. Чориев С. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
6. Туленова Г. Ж. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
7. Пардаев М.Х. – тарих фанлари доктори, доцент,
8. Фойибов Б.С. – тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
9. Ярматов Р. – педагогика фанлари доктори (DSc), доцент,
10. Сайдқосимов А.И. – ф.ф.б. фан доктори (DSc), доцент,
11. Амануллаев А. – ф.ф.б. фан доктори (PhD), доцент,
12. Тошбоев Ф.Э. – тарих фанлари бўйича фан доктори (PhD), доцент,
13. Миркомилов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент,
14. Сайдов М. – фалсафа фанлари номзоди, доцент,
15. Гофуров Ж. – тарих фанлари бўйича фан доктори (PhD), доцент,
16. Ҳошимхонов М.Х. – ф.ф.б. фан доктори (DSc), доцент
17. Валиев А.Х. – катта ўқитувчи,
18. Мажидов А.С. – катта ўқитувчи,
19. Каримова Н. – ўқитувчи,

XARAKANA RUSTOQINING ARXEEOLOGIK O'RGANILISH
TARIXI

Xudayorov O'ktam – JDPI, Tarix magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xarakana rustoqining arxealogik tadqiqotlar asosida geografik joylashuvi, iqlimi va yoshi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Xarakana, rabot. Ustrushona, Sangzor, G'allaorol.

Taniqli ustrushonashushos N.Negmatov Xarakana shahrini G'allaorol va Kuropatkino temir yo'l stantsiyalari atrofiga joylashtiradi¹. Umuman olganda, tadqiqotchi rustoqning taxminiy o'rnini ko'rsatib bergan bo'lsa ham, bu fikr faqat yozma manbalar ma'lumotlariga tayangan holda, hududni arxeologik jihatdan o'rganilmasdan bildirilgan taxmin edi. Yozma manbalar Xarakana shahridan 2 farsax (taxminan 15km) masofada joylashgan Nujkent shahri haqida ma'lumot beradi. N.Negmatov Nujkentni qaysi rustoqqa oid ekanligi masalasini ochiq qoldirib, uni Xarakananing janubiy-sharqida, Burnamad rustoqining janubida Mug'ol va Baxmal qishloqlari atrofiga joylashtiradi². A.Berdimurodov Nujkent shahrini Qo'rg'ontepaga yodgorligidan 15-18 km masofa janubda joylashgan Nushkent qishlog'i o'rniga joylashtirishni taklif etadi³. Bu masalada tadqiqotchilarining fikri bir-biriga mos tushganligi kuzatilsa ham yodgorlikda tadqiqot ishlari olib borilmaganligi sababli Nujkent shahrining o'rni va mavqeい qaysi rustoqqa oid ekanligi va uning joylashish o'rni uzil-kesil hal etilmagan masala bo'lib qolmoqda. Mutaxassislar fikricha, esa Nujkent yuqorida qayd etilgan Nushkent qishlog'ining sharqiy qismida joylashgan o'rta asr yodgorligi Bo'ztepa o'rniда bo'lgan.

Xarakana rustoqida Oydisoytepa (mil. avv. I asr), Qing'irtepa, shahidtepa (I asr), Almantepa, Jalmantepa, Lapaxtepa, Nushkent kabi tarixiy arxeologik yodgorliklar bor.

A.E.Berdimurodov tomonidan XX asrning 80-yillarida olib borilgan izlanishlar natijasida, bu yerda yirik yodgorliklar qoldiqlari aniqlanmadı. Tadqiqotchi hududdagi arxeologik yodgorliklarni hisobga olish ishlari natijasida rustoqning markazi Xarakana shahrini – Qo'rg'ontepaga I yodgorligi, rabodni Qurg'ontepaga II yodgorligi o'rniga joylashtirishni taklif etadi⁴. Qo'rg'ontepaga

¹ Негматов Н.Н. Усрушона в древности и раннем средневековье. -Сталинабад. 1957, с.39.

² Негматов Н.Н. Усрушана в древности и раннесредневековье. - Сталинабад. 1957, с.40

³ Бердимуратов А.Э. Раннесредневековые археологические памятники Джизакского оазиса. АКД.-М.: 1985, с. 12.

⁴ Бердимуратов А.Э. Раннесредневековые археологические памятники Джизакского оазиса.: АКД.-М.:1985. с.11-12

Тарих ва Жамият илмий журнали

yodgorligi ilk marotaba E.B.Qodirov tomonidan o‘rganilgan edi⁵. Yu.F.Buryakov Buyuk ipak yo‘li tarmoqlarini o‘rganar ekan, bu yodgorlikni savdo yo‘lidagi Katvondiz manzilgohi bilan, unga yaqin Juvoq qishlog‘i yaqinidagi yodgorlikni esa Xushufag‘n manzilgohi bilan bog‘laydi⁶. Kelajakda bu yodgorliklarning arxeologik jihatdan o‘rganilishi, bu shahar va manzilgohlarning geografik o‘rnini aniqlab beradi. Ayni vaqtda hududning umumiy arxeologik xaritasini tuzish jarayonida ko‘plab yodgorliklarning aniqlanishi va ularning bir nechtasida (Qing‘irtepa I, Qing‘irtepa II, Almantepa) olib borilgan izlanishlar⁷ Xarakana rustoqi haqidagi juda ham cheklangan ma’lumotlarimizni boyitib, uning o‘rta asrlarda aholi zich joylashgan, boy moddiy madaniyatga ega hududlardan biri bo‘lganligini ko‘rsatib beradi va shu bilan birga tadqiqotchilar oldiga o‘z yechimini kutayotgan ko‘plab muammolarni qo‘yadi.

Keyingi yillarda o‘tkazilgan qidiruv, ilmiy qazish tadqiqotlari natijasida O‘zbekiston tarixi, arxeologiyasi qimmatli ma’lumotlar, qadimgi davr madaniyati, amaliy san’ati, me’morchiligi, hunarmandchiligiga mansub nodir topilmalar, osoriatiqalar bilan yanada boyidi. O‘tmishda Ustrushona davlati tarkibiga kirgan Sirdaryo, Jizzax viloyatlari hududidagi tarixiy-madaniy vohalar ham aslida Turon zaminining qadimgi va o‘rta asr tarixida muhim o‘rin egallagan qismi edi. Qatvon cho‘li (G‘allaorolning g‘arbiy hududi) va Mirzacho‘lni, xususan, Yangiqo‘rg‘on va Jizzax vohasini turli yunalistida kesib o‘tgan karvon yo‘llari, o‘rta asrlarda “Movarounnahrning ulkan savdo bandargohi” deb nom olgan Samarqandni shosh, sharqiy Turkiston, Xo‘jand, Farg‘ona, Yettisuv va Xitoy bilan uzviy bog‘lab turgan. Qadimgi Ustrushonaning shimoliy, g‘arbiy qismida, xususan G‘allaorol va Jizzax vohalarida keyingi o‘n besh yil ichida o‘tkazilgan arxeologik qazuv tadqiqotlari natijasida hozirgi G‘allaorol tumani hududida bo‘lgan Xarakana rustoqining antik va o‘rta asr yodgorliklari - Oydisoytepa, Qing‘irtepa, Almantepa, Jalmantepa, Lapaxtepa, Nushkent ochib o‘rganildi. Bu esa Ustrushonaning mazkur hududida muqim istiqomat qilgan aholining hayot tarzi va xo‘jalik faoliyatini tadqiq etish, arxeologik ashyoviy dalillar, moddiy-madaniy topilmalarni qo‘shni Sug‘d, Choch, Farg‘ona mintaqasi topilmalari bilan taqqoslab o‘rganishga imkoniyat yaratdi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, G‘allaorol vohasining tog‘ va tog‘ oldi mavzelari, Sangzor daryosi havzasidagi katta tekislik vodiylar O‘zbekistonning qadimdan aholi zich joylashgan, dehqonchilikka asoslangan, o‘troq hayot qaror topgan madaniy o‘lkalari qatoriga kirgan.

⁵ Кадыров Э.Б. Разведки в Джизакской области // АО. 1977г. М.: Наука. 1979. с.553.

⁶ Буряков Ю.Ф. Исследования 1989 года по программе ВШП. // ИМКУ. Вып.25. – Т.: Фан. 1992. С.178-189.

⁷ Бердимурадов А.Э. Раннесредневековые археологические памятники Джизакского оазиса. АҚД.-М.:, 1985, с. 21.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Ma'lumki, O'rta Osiyo hududida qadimdan madaniyati yuksak Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm, Choch, Parkana (Farg'ona) kabi davlatlar vujudga kelgan. Xitoy yilnomalarida yozilishicha, yangi eraning VI asrlarida bu davlatlar qatoriga yana bir davlat - Ustrushona davlati qo'shilgan.

1980-1985 yillar mobaynida o'tkazilgan arxeologik qazuv ishlari natijasida G'allaorol tumanining arxeologik yodgorliklari ruyxatga olingan va bir qancha qadimgi imoratlar, obidalar ochib o'rganildi.

Tadqiqotlar natijasida G'allaorol vohasida qadimgi ajdodlarning o'troqlashuvi va yerlarni o'zlashtirish jarayonlari ko'ldami, kichik irrigatsiya shoxobchalarining vujudga kelishi, ilk shahar va qishloq makonlarining paydo bo'lishiga oid yangiliklar, aniqliklar va arxeologiya fanida aynan G'allaorol tumaniga tegishli "O'rta Sangzor irrigatsiya rayoni yodgorliklari" atamasi paydo bo'ldi hamda Ustrushonaning qadimgi Xarakana viloyati Markaziy Osiyo mintaqasidagi aholisi o'troq hayot kechiruvchi, sug'orma dehqonchilik madaniyati, suv yuritishning sun'iy tarmoqlari yuksak rivojlangan qadimgi mintaqa qatoriga kirishi aniqlandi. G'allaorol tumani hududidagi Sangzorning ikki qirg'og'ida joylashgan Oyдинsoytepa sug'orish shoxobchasi vohada qayd etilgan eng qadimgi yashash mavzesidir. Dastlabki arxeologik ma'lumotlar bo'yicha bu mavzening ma'muriy markazi - Oyдинsoytepaning bunyod etilish tarixi miloddan avvalgi I asrlar bilan davrlangan. Keyingi yillarda o'tkazilgan kompleks tadqiqotlar shaharning bunyod etilish tarixini deyarli uch yuz yilga qadimiylashtirdi.⁸ Oyдинsoytepa xarobasining g'arbiy qismini daryo suvi butunlay yuvib ketgan. Shu sababli uning qadimgi davrdagi aniq o'lchamlari noma'lum. Shunday bo'lsada, Shahristonning uzunligi 0,8 km.ga, shahar o'rdasining diametri 50 m.ga teng ekanligi aniqlandi. Yodgorlikning qirqimlarida o'tkazilgan qazuv ishlari miloddan avvalgi IV-I asrlarga oid sopol idishlar namunasi to'plandi.

Qadimgi Ustrushonadagi diqqatga sazovor arxeologik kashfiyotlardan yana biri hududdagi Shahidtepa yodgorlik kompleksidir. Sahidtepa kompleksi bosh qo'rg'onidan tashqari, diametri 12-14 m, balandligi 1 m.gacha bo'lgan 120 ta mozorqo'rg'onidan tashkil topgan.

O'zbekistoi Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining San'atshunoslik instituti olimlari L.I. Rempel va E.V. Rtveladze rahbarligidagi maxsus ilmiy guruh shahidtepada va yana 2 ta kichik tepalikda ilmiy qazish ishlari o'tkazishgan. Ular shahidtepa yaqinidagi jarlik qirg'og'ining yer sathidan 5 m chuqurlikdan mozorqo'rg'on lahadi qoldig'ini va chalqancha yotgan odam suyaklari, uning yonidan shamshir topishgan. E.V. Rtveladze fikricha, bu topilma milodiy I asrga oiddir.

⁸ Ҳайдаров Х., Пардаев М. ва бошқалар. Фаллаоролнома. Тошкент, 1996, 12 б.

Тарих ва Жамият илмий журнали

San'atshunos professor M. Bulatovning fikricha, Shahidtepa kompleksi asli 365 ta tepadan tashkil topgan, lekin tepalarning uchdan ikki qismi bizning davrimizgacha saqlanib qolmagan. Muallifning farazi bo'yicha shoh qo'rg'on shahidtepa o'troq sug'diyilar va ko'chmanchi saklar uchun birgalikda sig'inadigan va ilmi-nujum sirlarini o'rganadigan sajdagoh - rasadxona, asosan ko'chmanchi qabilalar orasida zardushtiylik dinini tarqatish uchun mafkuraviy markaz, shahidtepa kompleksini tashkil etuvchi 365 tepe esa, yil hisobi, fasllar almashuvini belgilashda foydalaniladigan taqvim - kalendar sifatida xizmat qilgan.

Ko'rinish turibdiki, Oydinsoytepa shahar xarobalari, shahidtepa yodgorliklari ustida olib borilgan ilmiy izlanishlar G'allaorol vohasi xalqlari tarixi uzoq o'tmishga borib taqalganligidan dalolat bermoqda. Holbuki, bundan ham qadimgiroq ma'lumotlarni 1956 yilda arxeolog olim A.R. Muhammadjonov Morguzar tog'inining sharqiy ungiridagi Takatosh, g'arbiy ungiridagi Takali manziladigi qoyatoshlarga o'yib chizilgan rasmlar galereyasidan topishga muvaffaq bo'lgan edi. Ibtidoiy davrdagi rassom ajdodlarimiz tomonidan chizilgan bu ilk, sodda tasviriy san'at asarlari dagi asosiy mavzu turli hayvonlar - ohu, bug'u, arxar, ot, qoplon, it tasvirlari, odamlar va ularning birgalikda ov qilishi, diniy marosimlarni o'tkazish manzaralaridir. Qoyatoshlardagi ushbu rasmlarning eng qadimgilari miloddan avvalgi IV ming yilliklar bilan davrlangan.⁹

Demak, so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Sangzor vodiysidagi madaniy manzillar, xususan G'allaorol vohasi yerlarining ilk ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilishi qariyb 5 mingyillik tarixga ega.

Tarixda ma'lumki, miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Turon hududiga Markaziy Osiyoning sharqiy muzofotlaridan jangovar turkiy qabilalar yuechjilar bostirib kiradi. Ular Farg'ona va shosh, Ustrushona (Jizzax, G'allaorol) orqali o'tib, dastlab Sug'diyonani, keyin esa o'sha davrning qudratli davlati bo'lgan Yunon-Baqtriyani bosib olishadi. Aynan shu davrda Oydinsoytepa shahri xarobaga aylanadi va unda hayot to'xtaydi.

Kushonlar davrida bir qancha shaharlar qurilib, shulardan biri Sarbozor qishlog'i hududida joylashgan Qo'rg'on tepe yodgorligidir. Qo'rg'on tepe o'midagi shahar atrofi, miloddan avvalgi I asrlarda Oydinsoytepaga nisbatan quyi hisoblangan Sangzorning kichik vohasi intensiv ravishda o'zlashtirila boshlangan. Umumiyl maydoni 10 gettardan oshiq Qo'rg'on tepe shahar xarobasi uch qismdan tashkil topgan. Mudofaa devorlari bilan o'rab olingan shahar hokimi o'rdasi, Shahriston, rabotlar, ya'ni mudofaa devoridan tashqarida joylashgan karvonsaroylar, ishlab chiqarish, yashash makonlaridan iborat bo'lgan. Shahar atrofidagi handaqlar Sangzordan chiqarilgan ariqlar orqali mudofaa maqsadlari

⁹ Мухаммаджонов А.Р. Сирли тошлар изидан // Фан ва Турмуш №1. Тошкент, 1957, 9 б.

Тарих ва Жамият илмий журнали

uchun suv to‘ldirib qo‘yilgan. Shahar ayniqsa, I-III, V-VIII, X-XII asrlarda gullab yashagan.

Jizzax vohasi qadimgi tarixi, arxeologik yodgorliklarini muntazam tarzda o‘rganish uchun akademik Y.G‘ulomov rahbarligidagi O‘zbek-Zarafshon ekspeditsiyasining maxsus otryadi 1948-yili Sangzor daryosining o‘rta oqimi havzasida qidiruv ishlarini olib bordi. Nushket qishlog‘ining shimoli-sharq tomonida, daryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan yodgorlikda tadqiqot ishlari o‘tkazildi. Qishloq aholisining xabar berishicha, yerni haydash paytida bu tepalikdan to‘rtta ustun tagligi va shuncha ustun qoldig‘i topilgan. Ustun tagliklari yaqinidan bronzadan ishlangan ikkita o‘tirgan odam va qandaydir ayvonning ikkita haykalchasi topilgan. Bundan tashqari, odam haykalchalari atrofida ularga orqa o‘girib o‘tirgan o‘n oltita sher haykalchalari va bitta xitoy mixxati (ieroglifi), bronza ko‘zgu topilgan.¹⁰

Tarixdan ma’lumki, G‘arb va sharq mamlakatlari xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayotini bir-biriga yaqinlashtirishda, moddiy madaniyatdagi o‘zaro aloqalarni mustahkam bog‘lashda qit‘alararo savdo karvon yo‘li Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati va nufuzi benihoya kattadir.

Miloddan avvalgi II asrda o‘z faoliyatini boshlagan ushbu karvon yo‘li dastlab Xitoyni Markaziy Osiyo mamlakatlari orqali Eron va arab mamlakatlari bilan bog‘lagan bo‘lsa, keyinchalik, o‘rta asrlardan boshlab Yevropa davlatlari bilan ham bog‘ladi. Buyuk Iapk yo‘lining 1500-1600 yillkk faoliyatida sharq mamlakatlari xalqlari, xususan ikki azim daryo – Sirdaryo va Amudaryo oralig‘idagi xalqlar muhim rol o‘ynadi.

Sohibqiron Amir Temurning shaxsan o‘zi Buyuk Ipak yo‘li rivoji va uning xavfsizligiga katta e’tibor bergen. Mabodo biron viloyatda karvonlar talon-toroj qilingan bo‘lsa, savdogarlarning ko‘rgan zarari viloyat hokimining shaxsiy jamg‘armasidan to‘langan. Bu esa amaldorlarni astoydil ishlashga majbur etgan. Temurning donoligi shundaki, Buyuk Ipak yo‘li orqali Turon zaminiga nafaqat moddiy boyliklar, balki turli madaniyat, g‘oya va tafakkur, ilm-fan kashfiyotlari kirib kelayotganligini ko‘ra bilgan.

O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: Buyuk Ipak yo‘lining shunday tarixiy jarayonlarida G‘allaorol vohasi xalqlarining o‘rnini qanday bo‘lgan? X asrlarda Ipak yo‘li bo‘ylab sayohat qilgan arab tarixchi-geograflari ibn Xavqal, al-Istaxriy, al-Muqaddasiy, Yoqut kabilarning ta’kidlashichasi, IX-X asrlardagi eng serqatnov karvon yo‘li Bag‘dod - Tabriz - Koshon - Mavr - Chorjuy - Buxoro - Samarkand - Xarakana (G‘allaorol) - Dizak (Jizzax) bo‘lgan va u arab mamlakatlarini Movarounnahr va Xitoy bilan bog‘lagan.

¹⁰ Ҳайдаров Х., Пардаев М. ва бошқалар. Ғаллаоролнома. Тошкент, 1996, 14-б.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Sangzor vohasi xalqlari jun va tivitdan mato, gilam to‘qishga, kigiz bosishga juda usta bo‘lishgan. Xarakana va Dizakda sarxil mevalar yetishtirilgan. Ular ho‘l va asosan, quritilgan holatda uzoq mamlakatlarga jo‘natilgan. Yozma manbalarga ko‘ra, Xarakana va Dizakda sayyohlar hamda savdogarlar uchun ko‘plab karvonsaroylar mavjud bo‘lgan. Karvonsaroylar eshigi kechayu-kunduz mehmonlar uchun ochiq bo‘lgan.

Ana shu ma’lumotlarga tayanib, G‘allaorol vohasi aholisining Buyuk Ipak yo‘lidagi o‘rni faol bo‘lgan, deb aytish mumkin.

Tarixchi olim Y.F.Buryakovning fikricha, Buyuk Ipak yo‘li G‘allaorol mavzeidan ham 2 ta shoxobchaga ajralgan. Birinchisi Ilono‘tti darasi bo‘ylab to‘g‘ri Jizzaxga borgan bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish G‘allaoroldan janubga burilib, hozirgi Avliyo qishlog‘i orqali Morguzardan oshib Ravot qishlog‘iga tushgan. Jizzaxdan o‘tmay Zomin sari yo‘nalgan.¹¹

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida topilgan ashyoviy buyumlardan ham chet mamlakatlar bilan savdo-sotiqlar yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini tasavvur qilish mumkin. G‘allaorolning qadimgi moddiy madaniyat namunalari - kulol idishlarda, tanga, muhr kabi nodir topilmalarda Markaziy Osiyo va umuman sharq xalqlarining o‘zaro moddiy-madaniy aloqalarini ko‘rsatuvchi dalillar mavjud.

¹¹ Буряков Ю.Ф., Грицина А.А. Мавераннахр на шёлковым пути. Самарканд – Бишкек, 2006, с. 93.

Тарих ва Жамият илмий журнали